

ERKIN VOHIDOVNING “RUHLAR ISYONI” DOSTONI

Tojamatova Sarvinoz Rustambek qizi
filologiya (o'zbek tili) fakulteti III bosqich talabasi
Email: sarvinoztojamatova@gmail.com
Diyoraxon Isomiddin qizi Toychiyeva

Kimyo ta'lim yo'nalishi 3- bosqich talabasi
Andijon davlat universiteti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6668190>

Kalit so'zlar : “Ruhlar isyoni” dostoni, Nazrul Islom obrazi, “Inson –shaxs-shoir”
Annotatsiya : Ushbu maqolada Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonidagi
“inson –shaxs- shoir ” konsepsiyasini yoritishga qaratilgan.

O'zbek badiiy tafakkuri tadrijida zabardast shoir Erkin Vohidovning alohida o'rni bor. Shoirning yetuk ijodiy durdonalari o'zbek she'r iyatining kamolot cho'qqilardan biri hisoblanadi. Erkin Vohidov ijodi fenomenal hodisa sifatida o'zbek falsafiy tafakkurini yanada boyitishga, poetik idrokni ichki quvvat evaziga yangilashga, millat ruhiyat va qadriyatini saqlashga, so'z nafosatini anglash yo'lida xizmat qildi. Davr bilan birga adabiy mezonlar ham ma'lum ma'noda yangilanib, o'zgarib boradi. Ammo haqiqiy san'at durdonalari vaqt chig'irig'idan omon o'tadi. Erkin Vohidovning ijodi esa bu sinov haroratiga dosh bera oladigan darajada qalb qo'ri bilan pishirilgan, mantiq iplari bilan chiyrilgan. Shoir siyratida jo bo'lgan oqil va donolik, so'z fasohati, zakiy va nuktadonlik, chuqur bilim va mantiqiy ko'lam hali ko'p izlanishlarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Bugun shoir shaxsiyati, betakror ijodi ijtimoiy va badiiy voqelik sifatida alohida yondashuvni talab qiladi. Shu bois shoirning “Ruhlar isyoni” dostoniga yuzlanib, shoir ijodiga biografik yo'riq asosida yondashishni ma'qul bildim. Shoirning “Ruhlar isyoni” dostoni badiiy-estetik va falsafiy jihatdanchinakam san'at namunasi sifatida ayricha qiymatga ega. Doston 1977-1979 - yillarda yozilgan bo'lib, bengal shoiri Narzul Islomga bag'ishlanganligi manbalarda axborot tarzida qayd etilib, negadir dostonning yaratilish sabablari, muallif nuqtai nazari, maqsadi kabi savollar yetarli darajada ochiqanmaganligi meni mulohazaga chorladi? Muallif nega aynan Narzul Islomga asar bag'ishlashni niyat qildi? Narzul Islom qahramon sifatida shoir uchun vositami yoki imkoniyat? Doston yozilgan kezzlar shoir ijodining kamolot cho'qqisini zabt etgan davrga to'g'ri kelishini hisobga olsak, zamon tinch, yurt obod, shon-shuhrat, hayot farovonday. Ammo shoir ruhiyatida fikriy bezovtalik, nimadandir norozilik, o'zidan qoniqmaslik borligi uning shu davrda yaratilgan asarlarida yiltillab ko'zga tashlanadi. Buning ildizi qaerda borib taqalishi va dostonning yuzaga kelish omillari haqida mulohaza yuritish uchun ijodkor hayoti bilan bog'liq manbalarga yuzlanamiz. Erkin Vohidov ijodida “ Inson – Shaxs – Shoir “

muammosi konseptual ahamiyat kasb etgan. Uning uchun o'zlikni anglash va sodiq qolish hayot-mamot masalasi bo'lgan. Suhbatlarning birida u " Bu olamda yo'qotishlar ichidagi eng og'ir yo'qotish insonning o'zligini yo'qotishidir. Odamzod tafakkur va ehtiros, ruhiyat va imon dunyosida yashaydi. U yuragidagi e'tiqod bilan, ishonch bilan tirik va butun. O'zlikni yo'qotmoq ana shu olamdan judo bo'lmoqdir, inson imoratidagi ruknlarning – ustunlarning sinmog'idir," deb yozadi. Shoirlik ijodkor uchun imon va e'tiqod, burch va mas'uliyat, ishonch va umid kabidir. Ijodkor fikriga ko'ra, hamma zamonda ham jangchi, shaxs sifatida ham barkamol bo'lmog'i shart. Shoir birinchi navbatda talabni o'ziga nisbatan qo'ygan va bu nuqtai nazar dostonidagi qahramon tasvirida sezilarli darajada aks etgan. " Ruhlar isyoni" dostonida Ruh mavzusining markaziy muammo sifatida tanlashining o'zi alohida izlanishni talab etadi. Ruh din va falsafaning murakkab kategoriyalaridan biri bo'lib unda borliq va mavjudot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasida fikr yuritiladi. Islom olamida Ruh masalasiga bir oz hushyorlik bilan yondashiladiki, inson uni oxirigacha anglashdan ojiz. Shoir Ruh va ruhlar isyoni haqida yozishni niyat qilganligi sababi uning ijodiy va estetik prinsiplariga borib taqaladi. Bu paytda esa Sharqda Inson taqdiri, uning ozodligi, hayot-mamot masalasi hal bo'layotgan edi. Milliy ozodlik uchun kurashganligi bois –Isyonkor shoir laqabini olgan shoir, yozuvchi, musiqachi, faylasuf va jamoat arbobi Qozi Nazrul Islomning vafoti (1976) shoir qalbida kechayotgan iztiroblarni qaytadan alanga olishiga yo'l ochib yubordi, bo'g'zida qolgan alamlarni so'zga soldi. "Ruhlar isyoni" dostonining ikki yil vaqt oralig'ida yozilganligini inobatga olsak, muallif asar uchun zarur manbalarni: Narzul Islom hayotini, faoliyatini, ijodini, she'r larini o'rgangan. Ijodkor o'z asariga shoirning "Tug'ilgansan ozod, mudom Ozod bo'lib qol! " misralarini epigraf qilganligi ham bejiz emas. Erkin Vohidov Narzul Islomni o'ziga ustoz maqomida bildi, shoir ohlariga o'z ovozi hamohang etib, alam va dardlarini qo'shib jo'rovoz bo'lib kuyladi. Ijtimoiy muammoning shaxsiy dard bilan o'zaro uyg'un tarzda birikuv doston ta'sirchanlagini oshirishga xizmat qildi. O'zbek adabiyotida Sharq masalasi abadiy mavzulardan biridir. Ayniqsa, hind xalqining mustamlakachilarga qarshi ozodlik harakatlari o'zbek ijodkorlarini o'zgacha ruhda ilhomlantirgan. Shoir tabiatidagi falsafiylik va oqillik qahramonga o'zgacha jon baxsh etdi. Doston shoir ruhiy kamolatining namunasi sifatida adabiyotshunoslikda muhim manba bo'lib xizmat qilishi tayin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Erkin Vohidov. Ruhlar isyoni.T.:2018
2. Erkin Vohidov.Sharqiy qirg'oq.T.:1981

